



FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

Dilshoda Ergasheva

O‘zbek filologiyasi fakulteti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи I kurs magistranti

ADABIYOT DARSLIKLARIDA BERILGAN HADISLARNING YOSHLAR MA’NAVIYATIDA TUTGAN O’RNI

Annotatsiya: mazkur maqolada adabiyot darsliklarida berilgan Buxoriy hadislari, hadislarning bugungi ham ta’limiy, ham tarbiyaviy ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, maqolada ushbu mavzu yuzasidan muallif tomonidan shakllantirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar o‘z ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: hadis, sahih, muhaddis, svilizatsiya, muqaddas manba, “Qur’oni Karim”, payg‘ambarimiz, ijtimoiylik, MBT Bosh Assambleyasi, Xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, tarbiyaviy ahamiyat, hadisxonlik.

Hadis o‘zi nima? Nega hadislarni o‘qib, undan hayotiy xulosalar chiqarishimiz, hadislardan ta’limiy, ma’rifiy ozuqa olib, ma’naviyatimizni, qalblarimizni boyitishimiz darkor? Hadis – bu payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalomning aytgan so‘zlari, qilgan amallari hamda ko‘rsatmalaridir. Va yana boshqalar qilgan biror ishni ko‘rib, uni man etmagan bo‘lsa, o‘sha holat ham hadis hisoblangan.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentyabr kuni BMT Bosh assambleyasida so‘zlagan nutqida global muommolar yechimi yuzasidan fikrlar bildirib, Imom Buxoriy boy merosini asrab-avaylash, uni o‘rganish, ayniqsa, yoshlар ongini ma’rifat asosida

tarbiyalash bugungi kunning muhim vazifalaridan biri deya ta'kidlagan edi. Ushbu nutqida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahrida Imom Buxoriy nomidagi Xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to‘g‘risida qaror qabul qilinganligini ham ma’lum qildi. “Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da’vat etadi. Markaziy Osiyo Uyg‘onish davrining ko‘plab yorqin namoyandalari islom va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shtan beباho hissasini alohida qayd etmoqchiman. Ana shunday buyuk allomalarimizdan biri Imom Buxoriy o‘z ahamiyatiga ko‘ra islom dinida Qur’oni karimdan keyingi muqaddas kitob hisoblangan “Sahihi Buxoriy”ning muallifi sifatida butun dunyoda tan olingan”¹. Hadisshunos olim “Al jome’ as-sahih” asari ustida 16 yil ishladi. Buxoriy yig‘gan hadislarga faqat diniy manba deb emas, balki insoniyat sivilizatsiyasiga xizmat qiluvchi, kishi ruhiyatini sog‘lomlashtiruvchi, to‘g‘ri tarbiya beruvchi omil sifatida qaralishi lozim, nazarimda.

Bugungi yosh avlod turli ta’lim dargohlari (maktab, oliygoh)da hadis dunyosidan qay darajada oziqlanmoqda? 5-sinf adabiyot darsligiga kiritilgan ilmga taalluqli hadislar sharhiga diqqat qilsak, ilm o‘rganmoq va ilm o‘rgatmoqning fazilati to‘grisidagi hadisda ilm ko‘p yog‘gan yomg‘irga o‘xshatiladi. Ilm o‘rganuvchi esa tuproqqa o‘xshatiladi. Ya‘ni, yaxshi tuproq unumdar bo‘ladi, yomg‘ir (ilm)ni o‘ziga yaxshi singdirib, mo‘l hosil beradi (boshqalarga foydasi tegadi). Keyingi tuproq turi yomg‘irni o‘ziga singdirmaydi, to‘plab turadi, xolos. Kishilar undan foydalanishi mumkin: suvidan ichadi, ekin sug‘oradi va hk. Shunday tuproq turi borki, tep-tekis yer. U na suvni tutib turadi, na o‘ziga singdiradi. Hech nimaga foydasi tegmaydi. Shunga ko‘ra kishilar uch toifaga bo‘linadi deyiladi. Birinchisi mo‘min: o‘zi ilm oladi va boshqalarga ham o‘rgatadi, olgan ilmiga hayoti davomida amal qiladi. Ikkinchisi fosiq: o‘zi ilm oladi va o‘rgatadi, lekin olgan ilmiga o‘zi amal qilmaydi. Uchinchisi kofir: o‘zi ham ilm olmaydi, o‘zgalarga ham o‘rgatmaydi. Xo‘sh, bu hadisni o‘qigan o‘quvchi qaysi toifadan bo‘lgisi keladi? Albatta, birinchi toifadan bo‘lgisi, maqtov eshitgisi va shunga yarasha hayotdan mukofot olgisi keladi. O‘qituvchi birgina shu hadis mazmunini o‘quvchiga anglata olishi orqali unda o‘qishga bo‘lgan rag‘bat, xohishni uyg‘ota oladi. Darslikda keltirilgan “Yo Robbiy, ilmimni ziyoda qilgin”² degan hadis butun bashariyat uchun ahamiyatli duodir.

Bundan tashqari, yaxshi muomala, ota-onaga yaxshilik qilish, qarindoshlarga mehribonlik to‘g‘risida, kibr haqidagi mavzularda hadislar borki, ularni o‘qib kishi o‘zidagi yaxshi fazilatlarni to‘ldiradi, nuqsonlarini to‘g‘rilaydi. Mumtoz adabiyotimizning ildizlari, “Qur‘oni karim”, hadislar bilan sug‘orilganligi sabab, biz hadislarni to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘qib, undan xulosalar chiqarishimiz mumtoz adabiyotimizni ham teranroq tushunishimizga yordam beradi.

9-sinf adabiyot darsligida Buxoriyning hayot yo‘li, hadislarning hayotiy ahamiyati kengroq ko‘lamda yoritilgan. Ota-onani e’zozlash, qo‘ni-qo‘shnilarga yaxshilik qilish, yolg‘on gapirmaslik, mast qiluvchi ichimliklarni ichmaslik jami yigirma bir xil mavzuda bir nechta ixcham va sodda hadislar berilgan bo‘lib, ularni 9-sinf o‘quvchisi bemalol

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.

² Adabiyot 5-sinf darslik, T., “Sharq” nashriyoti – 2015, 26-bet.

o‘qib tahlil qila oladi. Masalan, ota-onani e’zozlash haqida Abdulloh ibn Abbos (r.a.)dan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: “Qaysi bir musulmon farzandi savob umidi bilan ertalab ota-onasini ziyorat qilsa, Alloh taolo unga jannatdan ikkita eshik ochadi. Agar ulardan bittasini ziyorat qilsa, unga jannatning bir eshigini ochadi, farzand ota-onasidan qaysi birini xafa qilsa, uni rozi qilmaguncha Alloh taolo undan rozi bo‘lmaydi”. Shunda bir kishi: “Agarda ota-onalar bolaga zulm qilsa, bola nima qilishi kerak?” — deb so‘raganida Abdulloh: “Agar ular bolaga zulm qilsalar ham bola ularni ranjitmasligi kerak”³, – deya javob beradilar. Bu hadis orqali islom dinida farzandlarning ota-onasiga munosabati qat’iy belgilab qo‘ylganligini ko‘ramiz. Demak, farzand har qanday holatda ham ota-onasini rozi qilishi, duosini olishi, yaxshi farzand bo‘lishga intilishi zarurligi uqtiriladi. Bugunda psixologlar inson o‘zini to‘laqonli baxtli his etishi uchun ota-onasini rozi qilishi kerakligini endi anglab, treninglar orqali ommaga yetkazayotgan bo‘lsa, bu tushunchalar necha asrlar ilgari hadislarda o‘z aksini topganini ko‘ramiz.

Shu o‘rinda hadisning dunyoviy ahamiyatiga to‘xtalib o‘tsak. Ko‘pchilik ayolga hurmat, muhabbat, uni e’zozlash Yevropada bizdan ko‘ra yaxshiroq, musulmonlar esa bu borada orqada deb o‘ylashadi. Lekin biz Buxoriy merosiga diqqat qilsak erkakning o‘z ayoliga bo‘lishi kerak bo‘lgan go‘zal munosabati hadislarda allaqachon muhrlanganligini ko‘ramiz. Masalan, erkak kishining o‘z juftiga tabassum qilib, uni xushnud etishi sadaqa qilish bilan barobar deyiladi. Va yana eng yaxshi kishi, avvalo, o‘z ahli ayoliga yaxshi munosabatda bo‘luvchilar ekanligi hadislarda aytilgan.

Hadislар ijtimoiy jihatdan ham yuksak ahamiyatga ega. Ibn Umar raziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda shunday deyiladi: “Rasululloh sollallohu alayhi vasallam shunday marhamat qilganlar: “Har bir mast qiladigan narsa xamrdir va har bir mast qiladigan narsa haromdir. Kim dunyoda xamr ichsa va vafot etsa va u unga mukkasidan ketgan bo‘lsa, oxiratda ichmaydi”, ya’ni jannatdagi nasibasini icha olmaydi, undan mahrum bo‘ladi deyiladi. Keyingi hadisda “Rasululloh sallallohu alayhi va sallam “Kimki bu dunyoda mast qilguvchi ichimlik ichgan bo‘lsa-yu, keyin ichganiga tavba qilmagan bo‘lsa, oxiratda tavba qilmoqdan mahrum qilingaydur!” — deyiladi. Hayotda ham mast qiluvchi ichimliklarning jamiyat taraqqiyotini orqaga suradigan, inson genetikasiga salbiy ta’sir qiladigan, kishi axloqini buzadigan, turli jinoyatlarni keltirib chiqaradigan illat ekanligiga guvohmiz.

Xulosa qilib, men hadisshunos bobomizning boy merosining inson kamolotidagi beqiyos ahamiyatini ta’kidlab, quyidagilarni tavsiya etaman: bog‘chalarda she’rlar yod olish bilan bir qatorda Buxoriy hazratlarining kichik hadislardidan yod olinishi, maktablarda g‘azalxonlik, she’rxonlik kechalari kabi hadisxonlik tadbirлari ham uyushtirilishi, bolajonlar va o‘smirlar uchun qisqa metrajli hadis matnini tushuntiradigan qiziqarli teleko‘rsatuвлar tashkil etilishi, shuningdek OTMlarda olimning ma’naviy merosi semenar tarzda o‘tilshi orqali yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “bu ulug‘ zotning boy merosini asrab-avaylash va o‘rganish, ma’rifiy islom to‘g‘risidagi ta’limotini keng yoyish”dek ulkan ishga o‘z hissamizni qo‘sghan bo‘lar edik. Zero hadislар imom-xatiblar,

³ Yo‘ldoshev Q., Qodirov V., Yo‘ldoshbekov J. 9-sinf adabiyot darsligi, T., O‘zbekiston NMIU, 143-bet.

hadis maktablari tomonidan o‘rganilishidan tashqari, avvalo, xalq tomonidan, butun yosh avlod tomonidan o‘rganilishi, ardoqlanishi va amal qilinishi lozim bo‘lgan ma’naviy xazinadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Shermuhamedova N.A. Ilmiy tadqiqot metodologiyasi, T., Fan va texnologiya nash., - 2014.
2. Adabiyot 5-sinf darslik, T., “Sharq” nashriyoti – 2015.
3. Adabiyot 9-sinf darslik, T., “O‘zbekiston” NMIU — 2019.
4. Al-Buxoriy, Hadis. T., Qomuslar bosh tahririyati – 1991.
5. www.ziyonet.uz
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017- yil 19-sentabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi.